



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA O'TGAN ZAMON FE'L SHAKLLARINING EKVIVALENTLIK MUAMMOLARI XUSUSIDA

Ismonaliyev Jamoliddin Qo'ldashaliyevich

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ismonaliyevjamoliddin@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-7022-5055

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turli til oilalariga mansub bo'lgan o'zbek va ingliz tillaridagi o'tgan zamon fe'l shakllarining ekvivalentlik masalalari nazariy tahlil qilinadi. Bu ikki tildagi nomutanosibliklar, ayniqsa, tarjima jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar diqqat markaziga olinib, bu yuzasidan tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *fe'l, agglyutinativ til, analitik til, funksionallik, ekvivalentlik, aspektual farqlar, kontekstual vositalar*

Abstract: *This article presents a theoretical analysis of issues regarding the equivalence of past tense verb forms in Uzbek and English, languages belonging to different language families. Particular attention is paid to the disparities between the two languages, especially the challenges that arise during the translation process, and recommendations are offered to address them.*

Key words: *verb, agglutinative language, analytic language, functionality, equivalence, aspectual differences, contextual means*

O'zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub ekanligi tufayli har ikki tilda grammatik zamon tushunchalari, ularning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari bir-biridan katta farq qiladi. Fe'l zamonlarining o'tgan, hozirgi va kelasi kabi asosiy zamonlarga ajraladi, ammo ular struktur jihatdan umumiy xususiyatlarga ega emas.

Agglyutinativ til sifatida o'zbek tili so'zning negiziga affikslar qo'shish yo'li orqali yangi so'z va grammatik shakllar hosil qiluvchi tildir, ingliz tili esa analitik til sifatida grammatik ma'nolarni ifodalash uchun ko'makchi fe'llar va mustaqil



ma'no ifodalovchi so'zlar kombinatsiyasidan foydalanadi. Ingliz tilida affikslarga kamroq murojat qilinadi.

Bunday nomutanosibliklar bu ikki til o'rtasida to'siq yaratib, bu tillarni o'zaro anglashda murakkablik tug'diradi. Yuzaga keladigan bunday muammo qiyosiy tadqiqotlarning, xususan fe'l zamonlarini qiyosiy tadqiq etish, bu ikki tildagi ekvivalent va farqli hodisalarni aniqlash ahamiyatiga urg'u beradi.

O'zbek va ingliz tillaridagi o'tgan zamon fe'l shakllarining chog'ishtirma tadqiqi, ayniqsa, ikki tilning o'zaro tarjima jarayonlarida ekvivalentlikni ta'minlash uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu tillardagi zamon kategoriyasi struktur, semantik va funksionallik jihatidan bir-biridan farqli xususiyatlarga ega ekanligi o'tgan zamon fe'l shakllarini o'zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda asosan morfologik muvofiqlik emas, balki semantik ekvivalentlikni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ingliz tilida o'tgan zamon to'rtta asosiy grammatik shakl asosida ifodalab beriladi. Ular *Past Simple* (o'tgan oddiy zamon), *Past Continuous* (o'tgan davomli zamon), *Past Perfect* (o'tgan tugallangan zamon), *Past Perfect Continuous* (o'tgan tugallangan davomli zamon) kabilardir. Shuningdek, qo'llanishi nisbatan kam uchratilsada, to'rtta *Future-in-the Past* (o'tgan kelasi) zamonlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

O'zbek tilida esa aksariyat o'zbek tilshunoslari o'tgan zamon fe'l shakllari sifatida quyidagi zamonlarni tasniflaydilar: *o'tgan zamon aniqlik fe'li*, *tarixiy o'tgan zamon fe'li*, *uzoq o'tgan zamon fe'li*, *o'tgan zamon hikoya fe'li*, *o'tgan zamon eshitilganlik fe'li*, *tugallanmagan o'tgan zamon fe'li* yoki *o'tgan zamon davom fe'li*¹.

O'zbek va ingliz tillaridagi o'tgan zamon fe'l shakllarining hosil qilinishi morfologik o'xshashlikka ega emas. Ingliz tilida o'tgan zamon fe'l shakllari zamon va aspekt uyg'unligida, yordamchi fe'llar va asosiy ma'no anglatuvchi fe'llarning fleksion shakllari bilan birga qo'llanishi orqali hosil qilinadi. O'zbek tilida o'tgan

¹ Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1954. – Б. 22-23./ Абдурахмонов Ғ. (умумий таҳрир) Ҳозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966. – Б.288.



zamon fe'l shakllari **-di, -gan, -gan edi, -b edi, -b (+man/san/miz...), -ar/-(a)yotgan/-(a)yotir/-moqda edi** kabi maxsus fe'l formalari yordamida hosil qilinadi.

Ingliz tilida “*Perfect*” yoki “*Progressive*” (*Continuous*) kabi aspektlar o'tgan zamonlarda harakat tugallangan yoki davomli bo'lishini aspektual farqlarini mustaqil tarzda, aniq ko'rsatib beradi. O'zbek tilida esa, ba'zi hollarda bu ma'nolarni grammatik yo'l bilangina ifodalash imkonsizdek ko'rinadi va ba'zi ma'nolar kontekstual vositalar bilan ochib beriladi.

Tarjima nazariyasiga ko'ra ekvivalentlikning ikki darajasi mavjud bo'lib, ular “formal” va “funksional” ekvivalentlik deb nomlanadi.

Formal ekvivalentlik bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida matnning grammatikasi va tuzilishi bir xil bo'lishiga e'tibor qaratadi. Tarjima qilishda funksional ekvivalentlik nuqtai nazaridan qaralganida esa asl matnning ma'nosi, unda ifodalangan maqsad va o'quvchiga matnning ta'sirini saqlashga qaratiladi. Funksional ekvivalentlik tarjimada morfologik va sintaktik o'zgarishlar bo'lsada, ma'no va maqsadni saqlashga, matnning tushunarli va tabiiy bo'lishiga e'tibor qaratadi.

O'zbek va ingliz tillaridagi sintaktik nomutanosibliklar ham tarjima va ekvivalentlik masalalarini qiyinlashtirishga sabab bo'ladi. O'zbek va ingliz tillarida gap bo'laklarining joylashuvidagi farq, ya'ni o'zbek tilida kesimning ikkinchi darajali bo'laklardan keyin qo'llanishi yoki ingliz tilida kesimning egadan keyin qo'llanishi tarjimada ravonlikni saqlashda e'tibor talab qiluvchi jihatlardan biri hisoblanadi.

O'zbek va ingliz tillaridagi o'tgan zamon fe'l shakllari tizimi morfologik va sintaktik jihatdan to'liq mos kelmaydi. Shu tufayli, tarjimada grammatik moslik emas, balki semantik ekvivalentlikni ta'minlashga e'tibor qaratish lozim. Tarjima jarayonida, ayniqsa, *Perfect* va *Continuous* kabi aspektlarning o'zbekcha ekvivalentlarini tanlashda aspektual tafovutlar va kontekstual tahlil inobatga olinishi kerak. Bu esa tarjima jarayonida tarjimondan grammatik bilim bilan birga pragmatik va semantik sezgirlikka ega bo'lishni ham talab etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1954.
2. Абдурахмонов Ғ. (умумий таҳрир) Ҳозирги ўзбек адабий тили.– Тошкент: Фан, 1966.
3. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur – Bo‘stoni, 2012.